



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 45 289 tani (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 39 312 ta) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar – fevral holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 570 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 393 taga, oilaviy korxonalar 130 taga ko‘paygan.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	309	2,1 %	Narpay t.	46	3,0 %
Kattaqo‘rg‘on.sh	38	2,7 %	Payariq t.	76	3,4 %
Oqdaryo t.	61	3,3 %	Pastdarg‘om t.	114	3,4 %
Bulung‘ur t.	84	4,8 %	Paxtachi t.	33	2,7 %
Jomboy t.	48	2,6 %	Samarqand t.	121	3,8 %
Ishtixon t.	49	2,3 %	Nurobod t.	71	5,1 %
Kattaqo‘rg‘on t.	58	2,5 %	Urgut t.	102	2,9 %
Qo‘shrabot t.	42	4,0 %	Toyloq t.	68	3,6 %


2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2023-yil 1-mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar Savdo sohasida 16 374 tani, Sanoatda 6 884 tani, Yashash va ovqatlanishda 3 793 tani, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 957 tani, Qurilishda 2 792 tani tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	14 463	105,2 %	Narpay t.	1 534	96,8 %
Kattaqo'rg'on.sh	1 401	89,8 %	Payariq t.	2 248	90,1 %
Oqdaryo t.	1 869	92,0 %	Pastdarg'om t.	3 341	83,9 %
Bulung'ur t.	1 760	89,6 %	Paxtachi t.	1 241	94,4 %
Jomboy t.	1 857	94,3 %	Samarqand t.	3 231	93,9 %
Ishtixon t.	2 150	83,4 %	Nurobod t.	1 383	92,5 %
Kattaqo'rg'on t.	2 300	92,1 %	Urgut t.	3 543	85,8 %
Qo'shrabot t.	1 049	93,6 %	Toyloq t.	1 919	93,9 %

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 306 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 304 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	304	2,3 %	Narpay t.	44	3,5 %
Kattaqo'rg'on.sh	38	3,1 %	Payariq t.	75	3,9 %
Oqdaryo t.	60	3,7 %	Pastdarg'om t.	114	4,0 %
Bulung'ur t.	83	5,5 %	Paxtachi t.	32	3,2 %
Jomboy t.	48	3,0 %	Samarqand t.	121	4,1 %
Ishtixon t.	49	2,7 %	Nurobod t.	70	6,0 %
Kattaqo'rg'on t.	58	3,0 %	Urgut t.	100	3,3 %
Qo'shrabot t.	42	5,2 %	Tayloq t.	68	4,1 %


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- mart holatiga 39 520 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 180,9 foizni tashkil etdi (17 668 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,4 foiz, sanoat – 17,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,4 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,6 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,2 foiz, boshqa turlari – 10,3foiz.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	13 045	105,5 %	Narpay t.	1 255	96,5 %
Kattaqo'rg'on.sh	1 223	88,3 %	Payariq t.	1 910	89,0 %
Oqdaryo t.	1 640	91,7 %	Pastdarg'om t.	2 889	82,4 %
Bulung'ur t.	1 504	88,7 %	Paxtachi t.	997	93,3 %
Jomboy t.	1 627	93,6 %	Samarqand t.	2 947	93,5 %
Ishtixon t.	1 855	81,5 %	Nurobod t.	1 161	90,8 %
Kattaqo'rg'on t.	1 956	90,6 %	Urgut t.	3 041	83,7 %
Qo'shrabot t	814	91,3 %	Tayloq t.	1 656	93,0 %

2023- yil yanvar –fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-fevral oylarida Tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 21 tadan 36 taga (o'sish 15 taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Samarqand sh.	304	2,4 %	Narpay t.	44	3,5 %
Kattaqo'rg'on.sh	38	3,1%	Payariq t.	75	3,9 %
Oqdaryo t.	59	3,6 %	Pastdarg'om t.	114	4,0 %
Bulung'ur t.	82	5,5 %	Paxtachi t.	32	3,2 %
Jomboy t.	48	3,0 %	Samarqand t.	121	4,1 %
Ishtixon t.	49	2,7 %	Nurobod t.	70	6,1 %
Kattaqo'rg'on t.	58	3,0 %	Urgut t.	100	3,3 %
Qo'shrabot t	42	5,2 %	Tayloq t.	68	4,1 %


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlarining viloyatga nisbatan ulushi Samarqand shahrida (32,9 foiz), Urgut (7,7 foiz), Samarqand (7,5 foiz), va Pastdarg'om (7,3 foiz) tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	12 946	105,5 %	Narpay t.	1 252	96,6 %
Kattaqo'rg'on.sh	1 218	88,3 %	Payariq t.	1 904	88,9 %
Oqdaryo t.	1 636	91,6 %	Pastdarg'om t.	2 871	82,3 %
Bulung'ur t.	1 496	88,5 %	Paxtachi t.	993	93,3 %
Jomboy t.	1 618	93,6 %	Samarqand t.	2 931	93,5 %
Ishtixon t.	1 846	81,6 %	Nurobod t.	1 155	90,7 %
Kattaqo'rg'on t.	1 952	90,7 %	Urgut t.	3 031	83,8 %
Qo'shrabot t	812	91,0 %	Tayloq t.	1 651	92,9 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	175
Kattaqo‘rg‘on sh.	48
Oqdaryot t.	153
Bulung‘ur t.	223
Jomboy t.	146
Ishtixon t.	126
Kattaqo‘rg‘on t.	320
Qo‘shrabot t.	98
Narpay t.	108
Payariq t.	148
Pastdarg‘om t.	373
Paxtachi t.	98
Samarqand t.	304
Nurobod t.	363
Urgut t.	200
Tayloq t.	74



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 683
Kattaqo'rg'on sh.	236
Oqdaryot t.	288
Bulung'ur t.	238
Jomboy t.	336
Ishtixon t.	361
Kattaqo'rg'on t.	361
Qo'shrabot t.	151
Narpay t.	182
Payariq t.	277
Pastdarg'om t.	561
Paxtachi t.	197
Samarqand t.	658
Nurobod t.	145
Urgut t.	888
Tayloq t.	322



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'zgarish sur'ati 5,6 foizga kamaygan.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 15,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 145
Kattaqo'rg'on sh.	109
Oqdaryot t.	124
Bulung'ur t.	53
Jomboy t.	110
Ishtixon t.	91
Kattaqo'rg'on t.	115
Qo'shrabot t.	69
Narpay t.	68
Payariq t.	216
Pastdarg'om t.	202
Paxtachi t.	57
Samarqand t.	111
Nurobod t.	58
Urgut t.	153
Tayloq t.	111



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,4 foiz ulushni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,2 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,0 foizni tashkil etdi.

346



Fuqarolik
obyektlarini qurish

731

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1715


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	5 039
Kattaqo'rg'on sh.	532
Oqdaryot t.	722
Bulung'ur t.	689
Jomboy t.	668
Ishtixon t.	900
Kattaqo'rg'on t.	793
Qo'shrabot t.	344
Narpay t.	631
Payariq t.	886
Pastdarg'om t.	1 265
Paxtachi t.	470
Samarqand t.	1 244
Nurobod t.	343
Urgut t.	1 126
Tayloq t.	722



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 328 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 74,7 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'zgarish sur'ati 98,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 15,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 113,9 foizni tashkil etdi

1 561

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 576

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


12 237

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 732
Kattaqo'rg'on sh.	104
Oqdaryot t.	137
Bulung'ur t.	113
Jomboy t.	143
Ishtixon t.	127
Kattaqo'rg'on t.	174
Qo'shrabot t.	64
Narpay t.	123
Payariq t.	165
Pastdarg'om t.	172
Paxtachi t.	47
Samarqand t.	222
Nurobod t.	75
Urgut t.	245
Tayloq t.	150



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,0 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziqovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 88,0 foiz ulushini tashkil etdi.

454

Yashash bo'yicha xizmatlar



3 339


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	375
Kattaqo'rg'on sh.	35
Oqdaryot t.	34
Bulung'ur t.	20
Jomboy t.	13
Ishtixon t.	18
Kattaqo'rg'on t.	14
Qo'shrabot t.	9
Narpay t.	12
Payariq t.	47
Pastdarg'om t.	44
Paxtachi t.	3
Samarqand t.	40
Nurobod t.	11
Urgut t.	60
Tayloq t.	19



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 2,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 65,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 0,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 34,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 120,1 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	413
Kattaqo'rg'on sh.	41
Oqdaryot t.	45
Bulung'ur t.	24
Jomboy t.	43
Ishtixon t.	48
Kattaqo'rg'on t.	19
Qo'shrabot t.	12
Narpay t.	22
Payariq t.	44
Pastdarg'om t.	50
Paxtachi t.	17
Samarqand t.	62
Nurobod t.	49
Urgut t.	62
Tayloq t.	60



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 889 ta yoki 87,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

97,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 85,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 160,0 foizni tashkil etdi.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17




Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

986

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	481
Kattaqo'rg'on sh.	23
Oqdaryot t.	26
Bulung'ur t.	36
Jomboy t.	59
Ishtixon t.	28
Kattaqo'rg'on t.	22
Qo'shrabot t.	13
Narpay t.	28
Payariq t.	28
Pastdarg'om t.	59
Paxtachi t.	19
Samarqand t.	89
Nurobod t.	10
Urgut t.	71
Tayloq t.	76



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 86,8 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 101,8 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 92,3 foizni tashkil etdi;


havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4,8 baravarga oshgan; suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 50,0 foizga kamaygan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	251	2,7 %	Narpay t.	22	6,0 %
Kattaqo'rg'on sh.	32	3,3 %	Payariq t.	39	3,9 %
Oqdaryo t.	29	3,1 %	Pastdarg'om t.	59	4,4 %
Bulung'ur t.	62	6,7 %	Paxtachi t.	12	2,4 %
Jomboy t.	22	2,6 %	Samarqand t.	83	4,6 %
Ishtixon t.	26	3,5 %	Nurobod t.	66	6,9 %
Kattaqo'rg'on t.	41	3,8 %	Urgut t.	65	3,8 %
Qo'shrabot t.	36	6,4 %	Tayloq t.	32	4,3 %


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 39 520 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 23 944 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 110,3 foiz, savdo – 106,5 foizni hamda yashash va ovqatlanish – 105,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	9 437	108,1 %	Narpay t.	370	103,1 %
Kattaqo'rg'on.sh	964	87,3 %	Payariq t.	1 000	88,7 %
Oqdaryo t.	928	92,6 %	Pastdarg'om t.	1 344	81,4 %
Bulung'ur t.	925	94,7 %	Paxtachi t.	504	91,8 %
Jomboy t.	838	93,2 %	Samarqand t.	1 822	97,9 %
Ishtixon t.	742	85,9 %	Nurobod t.	958	93,0 %
Kattaqo'rg'on t.	1 082	86,8 %	Urgut t.	1 724	88,0 %
Qo'shrabot t.	565	99,3 %	Tayloq t.	741	98,7 %

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2023- yil yanvar-fevral oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 8 taga, Tashish va saqlash 2 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	11	0,9 %	Narpay t.	19	3,5 %
Kattaqo'rg'on sh.	1	0,8 %	Pastdarg'om t.	28	4,5 %
Oqdaryo t.	18	5,1 %	Paxtachi t.	15	4,2 %
Bulung'ur t.	1	0,5 %	Samarqand t.	8	3,4 %
Jomboy t.	18	5,5 %	Urgut t.	15	1,8 %
Ishtixon t.	16	2,4 %	Tayloq t.	18	4,2 %
Kattaqo'rg'on t.	4	1,6 %			
Qo'shrabot t.	1	0,9 %			

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

112,2 %


109,5 %

110,6 %


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

118,6 %

87,0 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,0 foizni tashkil etgan.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish (1,5 foiz)ga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 184	93,9 %	Narpay t.	541	94,4 %
Kattaqo'rg'on.sh	129	85,4 %	Payariq t.	118	74,2 %
Oqdaryo t.	355	94,2 %	Pastdarg'om t.	620	62,6 %
Bulung'ur t.	186	59,2 %	Paxtachi t.	358	85,0 %
Jomboy t.	327	91,1 %	Samarqand t.	234	88,0 %
Ishtixon t.	674	83,5 %	Nurobod t.	142	79,3 %
Kattaqo'rg'on t.	246	82,5 %	Urgut t.	827	83,7 %
Qo'shrabot t.	112	83,0 %	Tayloq t.	432	90,0 %

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	40	1,7 %	Narpay t.	3	0,9 %
Kattaqo'rg'on sh.	5	4,2 %	Payariq t.	36	4,7 %
Oqdaryo t.	13	3,8 %	Pastdarg'om t.	27	3,0 %
Bulung'ur t.	20	5,4 %	Paxtachi t.	5	4,1 %
Jomboy t.	8	1,8 %	Samarqand t.	30	3,4 %
Ishtixon t.	7	1,7 %	Nurobod t.	4	8,7 %
Kattaqo'rg'on t.	11	1,9 %	Urgut t.	20	4,4 %
Qo'shrabot t.	5	5,0 %	Tayloq t.	18	3,8 %


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,3 foizni tashkil etgan.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 123,4 foiz, tashish va saqlash – 102,2 foizni hamda savdo – 101,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Samarqand sh.	2312	102,9 %	Narpay t.	319	97,6 %
Kattaqo'rg'on.sh	120	103,4 %	Payariq t.	765	94,2 %
Oqdaryo t.	342	87,7 %	Pastdarg'om t.	894	84,8 %
Bulung'ur t.	374	100,0 %	Paxtachi t.	123	166,2 %
Jomboy t.	441	85,3 %	Samarqand t.	876	87,3 %
Ishtixon t.	408	72,5 %	Nurobod t.	46	88,5 %
Kattaqo'rg'on t.	587	104,1 %	Urgut t.	457	72,5 %
Qo'shrabot t.	101	101,0 %	Tayloq t.	475	88,5 %

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	8	2,6 %	Samarqand t.	3	8,8 %
Kattaqo‘rg‘on t.	1	9,1 %	Tayloq t.	2	18,2 %


2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,4 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 110 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 18,0 foiz), Xitoy (ulushi 13,7 foiz), Afg'oniston va Janubiy Koreya (ulushi 6,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Samarqand sh.	304	102,7%	Narpay t.	6	120,0%
Kattaqo'rg'on.sh	17	77,3%	Payariq t.	10	52,6%
Oqdaryo t.	28	80%	Pastdarg'om t.	28	90,3%
Bulung'ur t.	12	52,2%	Paxtachi t.	7	70,0%
Jomboy t.	43	87,8%	Samarqand t.	34	77,3%
Ishtixon t.	12	75,0%	Nurobod t.	9	64,3%
Kattaqo'rg'on t.	11	78,6%	Urgut t.	42	82,4%
Qo'shrabot t.	16	76,2%	Tayloq t.	11	78,6%

2023- yil yanvar –fevral holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 371 tasi qo'shma korxonalar, 219 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

134	Samarqand sh.	170
3	Kattaqo'rg'on sh.	14
10	Oqdaryo t.	18
5	Bulung'ur t.	7
11	Jomboy t.	32
3	Ishtixon t.	9
5	Kattaqo'rg'on t.	6
9	Qo'shrabot t.	7
2	Narpay t.	4
4	Payariq t.	6
8	Pastdarg'om t.	20
2	Paxtachi t.	5
10	Samarqand t.	24
1	Nurobod t.	8
9	Urg'ut t.	33
3	Tayloq t.	8

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 66-235-14-42